


Press-turga taklif qilamiz!

Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi buyuk ajdodimiz, yirik davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, mohir sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 687 yilligiga bag'ishlab o'tkazayotgan "Sohibqiron Amir Temurga ehtirom" nomli tadbiri doirasida joriy yil 9-aprel kuni soat 10:00 da Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etilmoqda.

Press-tur davomida

- Amir Temur xiyobonida tadbirning tantanali ochilishi;
 - Temuriylar tarixi muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishish;
 - Ko'rgazma namoyishida ishtirok etish;
 - "Temuriylar Renessansi: tarix, tadqiqotlar va muammolar" ilmiy -amaliy anjumanlarni tashkil etish orqali muzeydagi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishtirish rejalashtirilgan.
- Ushbu press-turga barcha ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif qilamiz!

Manzil: Press- turimiz 9-aprel kuni soat 10:00 da Toshkent shahri, Amir Temur xiyobonida boshlanib, FA Temuriylar tarixi muzeyida davom etadi.



Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo’lsin!” – degan chuqur ma’noli so’zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur.

Shavkat Mirziyoyev



Hurmatli

Sizni buyuk ajdodimiz, yirik davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, mohir sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 687 yilligiga bag’ishlangan **“SOHIBQIRON AMIR TEMURGA EHTIROM”** nomli tadbirga taklif etamiz.

Tadbir 2023-yil 9-aprel kuni soat 10.00 da Amir Temur xiyobonida boshlanadi.

Tashkiliy qo’mita

Tadbir dasturi

10⁰⁰ Amir Temur xiyobonida tadbirning tantanali ochilishi:

- Amir Temur xiyobonida davlat va jamoat arboblari, xorijiy diplomatik korpus vakillari, mahalla faollari hamda talaba-yoshlar ishtirokida tantanali yig’ilish.
- Mehmonlarning Sohibqiron haykali poyiga gulchambarlar qo’yishi.

11⁰⁰ Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif.

- O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi “Turon” harbiy teatri hamda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Markaziy ashula va raqs ansamblining musiqiy badiiy chiqishlari.

- Ko’rgazma namoyishi:

- “Mumtoz cholg’ularning sirli sadosi”
- Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o’quvchilarining **“Olti asrdan beri yangrayotgan oshiq nolasi”** nomli teatrlashgan-musiqiy sahna ko’rinishi.

“TEMURIYLAR RENESSANSI: tarix, tadqiqotlar va muammolar” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman.